

"Botir Zokirovni xotirlab" ko'rik-tanlovi o'tkazildi

// 23.11.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/botir-zokirovni-xotirlab-ko-rik-tanlovi-o-tkazildi>



Kuni-kecha "Kimyogarlarni" madaniyat saroyida o'zbek estradasining asoschilaridan biri O'zbekiston xalq artisti-Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlangan ko'rik-tanlov tashkil etildi.

Unda "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati ishchi-xodimlari buyuk san'atkor ijodiga mansub hamda xalqimiz sevgan kuy-qo'shiqlarni yig'ilganlar e'tiboriga havola qilishdi.

"Botir Zokirovni xotirlab" ko'rik-tanlovi qizg'in va muvofiqsiz kurashlarga boy bo'ldi va yakunda:

1-o'rinni-Harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi-J.Sugurov va Ammiakli selitra ishlab chiqarishi xodimi-G'.Umarov ;

2-o'rinni Markazlashtirilgan elektr uskunalarini ta'mirlash sexi xodimi-D.Matchanov va Ammiakli selitra ishlab chiqarishi xodimi-K.Xodjimetov;

3 -o'rin Aloqa sexi xodimasi-O.Razakova egalladi.

Tadbir so'ngida g'olib va sovrindorlarga diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

"Maxam-Chirchiq" AJ Matbouts xizmati